

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI TABIIY HARAKATINING
O'ZGARIB BORISH TENDENSIYALARINI STATISTIK BAHOLASH**

Begalova Durdona Baxodirovna
TDIU "Statistika" kafedrasи assistenti,
2-kurs magistratura talabasi


Annotatsiya. So'ngi yillarda respublikamizdagi demografik jarayonlar pozitiv xarakterga ega bo'lib, aholining tabiiy o'sishi uzlucksiz bo'lmoqda. Demografik holat bir qator ko'rsatkichlar tizimi bilan ifodalanadi. Jumladan, doimiy aholi soni, uning yosh bo'yicha tarkibi, keksayish darajasi, tug'ilishi, vafot etishi, aholining tabiiy o'sishi, nikoh, ajrim va boshqalar kiradi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida aholi tabiiy harakatining o'zgarib borish tendensiyalarini statistik baholash borasida tahlillar olib boriladi.

Kalit so'zlar: aholining tabiiy harakarti, tug'ilish, o'lim, doimiy aholi soni, umr davomiyligi.

Aholining tabiiy harakatini tahlil qilish mamlakatning mehnat resurslarini baholashda muhim rol o'ynaydi. Tug'ilish ko'rsatkichlarini baholashda bir qator statistik-demografik ko'rsatkichlarni o'rganish kerak, masalan : tug'ilish, tabiiy o'sish, o'lim, nikohlar va ajralishlar, aholi migratsiyasi va boshqalar. Ushbu rejada O'zbekistonda demografik hodisani aniq tahlil qilish, bir qator mos yozuvlar ko'rsatkichlarini hisoblash va ular asosida aholi evolyutsiyasini bashorat qilish haqida keng yoritilgan. Shuningdek, tug'ilish tendentsiyasidan boshlab, bir tomondan, tug'ilish, faol aholi, band bo'lgan aholi, xodimlar soni, ikkinchi tomondan, yalpi ichki mahsulot o'rtaqidagi korrelyatsiya va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish uchun ekonometrik model taqdim etiladi. . Shu munosabat bilan oddiy va ko'p regressiya modellari, shuningdek indeks va xronologik usullar qo'llaniladi.


Aholi soni – bu harakatchan ko'rsatkich bo'lib, uning o'zgarishi demografik jarayonlar ta'siri ostida (aholining tabiiy va mexanik harakati natijasida) har soniyada sodir bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining doimiy aholi soni 1991 yilda 20,6 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 36,7 million kishini tashkil qilmoqda. Bundan ko'rishimiz mumkinki, mustaqillik yillaridan buyon aholi soni har yili o'rtacha yarim millionga ko'payib, 1,7 foiz o'sishni saqlab kelmoqda. O'zbekiston aholisini jinslar bo'yicha tahlil qilsak, mustaqillik yillarida jami aholining 50,6 % ni ayollar, 49,4 % ni erkaklar tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 49,7 % ni ayollar va 50,3 % ni erkaklar tashkil qilmoqda. O'z o'nida, mamlakatning urbanizatsiya jarayonlarini ko'rsatib beruvchi shaharlar va qishloqlarda yashovchi aholi soniga e'tibor qaratsak, mustaqillikning ilk yillarida aholining 40,3 foizi shahar joylarda, 59,7 foizi qishloq

joylarida istiqomat qilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib 51 foiz aholi shaharda va 49 foiz aholi qishloq joylarida istiqomat qilayotgani kuzatilmogda.




3-rasm. Doimiy aholi soning jinslar bo'yicha taqsimlanishi

Aholining tabiiy harakati – bu to'g'ridan-to'g'ri (tug'ilish, o'lim) va bilvosita (nikohlar va nikohdan ajralishlar soni) omillar ta'sirida aholi sonini, tarkibini va tuzilishini o'zgartirish jarayonidir. 2023 yilda aholining tabiiy o'sishi 789 mingtani tashkil etmoqda.




4-rasm. Tug'ilganlar soni dinamikasi

Tug'ilish – bu tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichdir. 1991 yildan bugungi kungacha bo'lgan tug'ilish dinamikasi 1998-2006 yillar oralig'ida 550 ming va undan kam tug'ilishni ko'rsatadi. 2000 yilda 527,6 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan, bu ko'rsatkich 2015 yil 734,1 mingtani va hozirgi kunga kelib esa 962,0 mingtani tashkil etmoqda. Bundan ko'rishimiz mumkinki, tug'ilganlar soni kundan- kunga keskin ortmoqda.



5-rasm. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o'limning asosiy sabablari sinfi bo'yicha o'lganlar soni to'g'risida ma'lumot (2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)

O'zbekiston Respublikasida vafot etganlar sonining asosiy o'lim sabablari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2023 yilda vafot etganlar 172,7 ming nafarni tashkil etgan. Ularning 109,0 ming nafari (jami vafot etganlarning 63,1 % i) qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 15,2 ming nafari (8,8 % i) o'smalardan, 9,3 ming nafari (5,4% i) kasallanish va o'limning boshqa sabablaridan, 8,3 ming nafari (4,8 % i) nafas organlari kasalliklaridan, 7,4 ming nafari (4,3 % i) hazm qilish organlari kasalliklaridan va 23,2 ming nafari (13,4 % i) ba'zi parazitar kasalliklar va boshqa kasalliklardan vafot etgan.



6-rasm. O’zbekiston Respublikasi bo'yicha tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

Aholining yashash sifati ko'rsatkichlaridan biri tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi (o'rtacha yashash uzoqligi) hisoblanadi. Respublika aholisining umr davomiyligi 2017 yilda 73,4 yoshni, 2018 yilda 74,6 yoshni, 2019 yilda 75,1 yoshni, 2020 yil 73,4 yoshni va 2021 yilda esa 73,8 yoshni tashkil etgan.

Aholining salomatligini yanada mustahkamlash va sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish, o'lim darajasini pasaytirishga va yashash sifatini yaxshilashga olib keladi.

Respublikamizda o'lim darajasini keskin pasaytirish uchun sog'liqni saqlash tizimida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- aholi orasida va oilalarda sog'lom turmush tarzini yaratish borasida targ'ibot ishlarini olib borish;
- onalar va bolalarni muhofaza qilish maqsadida tibbiy yordam sifatli va yuqori texnologiyalar asosida yo'lga qo'yish;
- aholiga ijtimoiy-tibbiy va tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish maqsadida kerakli chora- tadbirlarni ishlab chiqish;
- farmasevtika sanoatini yanada rivojlantirish;
- aholi o'rtasida ortiqcha vaznni oldini olish va to'g'ri ovqatlanishni yo'lga qo'yish;
- aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, 2007.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 apreldagi “Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4273-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023- yil 24-may 10-sonli qaroriga ilova “Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha” uslubiy nizom
4. Yorqin Abdullayev –“Statistika nazariyasi” . Toshkent- 2002
5. H. Shodiyev, I. Habibullayev- “Statistika” darslik- Toshkent “Iqtisod – Moliya-2019”
6. G'oyibnazarov B.K (2012) o'zining “Statistikaning nazariy asoslari va statistik axborotning shakllanishi” nomli o'quv-uslubiy qo'llanma
7. www.stat.uz– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi